

**PROFESSIONAL TA'LIM MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA
TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
VA O'TKAZISH BO'YICHA ILMIY, PEDAGOGIK VA O'QUV ADABIYOTLARI
TAHLILI**

Ro'ziyev Dilshod Ubaydullaevich

Professional ta'limni rivojlantirish instituti

Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari

dilshod.rziyev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqola professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitida tinglovchilarni mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, raqamli malaka oshirish, mustaqil o'quv faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalarini to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazish [1]. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish. Umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish" ustuvor vazifalar etib belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashda dual ta'limning ahamiyati mazkur dissertatsiyada batafsil keltirib o'tiladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoyishi esa bu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi [3]. Zero, professional ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi: mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirish professional ta'limning maqsadi hisoblanadi. Professional ta'lim tizimining vazifalari esa quyidagilar hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

- mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- ta'lim olish bilan birgalikda tinglovchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur bilimlarni berish va ularni kelgusida o'z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;
- mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsiya shakllar, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo'llab, professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- shaxslarning professional ta'lim muassasalarini ixtiyoriy tanlashi va kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bilim olish, shuningdek, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashdan o'tish imkoniga ega bo'lish sharoitlarini yaratish;
- professional ta'lim olish orqali shaxsning intellektual, madaniy va ma'naviy rivojlanishga bo'lgan individual ehtiyojlarini qondirish, tinglovchilarda vatanparvarlikni, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularda mas'uliyat va ijodiy faoliyatni rivojlantirishdan iborat.
- Farmonda belgilangan vazifalar birinchi navbatda xorijiy va mahalliy mehnat bozori, ish beruvchilar tomonidan mutaxassislarga qo'yilayotgan malaka talablarini puxta o'rgangan holda biz tayyorlayotgan mutaxassislarga uchun qanday kompetensiyalar zarur bo'lishini oldindan aniq belgilab olishimiz va shunga ko'ra ta'lim jarayonini tashkil etishimiz lozimligini anglatadi. Ushbu vazifalar ijrosi doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va kunikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" 2020 yil 15 maydagi 287-son qarori qabul qilinib, mazkur qaror bilan Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi [4].
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora tadbirlari haqida"gi 163-sonli Qarorida dual ta'limni tashkil etish bosqichlari keltirib o'tilgan:
- dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralarning iqtisodiyot tarmoqlarida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish;
- tashkilot va professional ta'lim muassasasi hamda tashkilot va tinglovchi o'rtasida shartnoma tuzish;

- hududlarda kasbga yoʻnaltirish ishlarini tashkil etish;
- tegishli taʼlim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;
- mehnat bozorida oʻrta boʻgʻin kadrlarga boʻlgan talab va takliflarni doimiy oʻrganib borish;
- tashkilot va professional taʼlim muassasasi hamda tashkilot va tinglovchi oʻrtasida shartnoma tuzish;
- hududlarda kasbga yoʻnaltirish ishlarini tashkil etish;
- tegishli taʼlim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;
- mehnat bozorida oʻrta boʻgʻin kadrlarga boʻlgan talab va takliflarni doimiy oʻrganib borish;

– dual taʼlim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash. WorldSkills International – bu xalqaro standartlar asosida ishchi kasblarni ommalashtirish va kasbiy tayyorgarlikni oshirish boʻyicha faoliyat yuritadigan xalqaro notijorat tashkilot hisoblanadi. Hozirda uning tarkibida 85 ta ishtirokchi davlatlar mavjud boʻlib, Oʻzbekiston 2020 yilda WorldSkills International xalqaro harakatining 83-aʼzosi sifatida qabul qilindi [5]. WorldSkills International standartlari boʻyicha kasb-hunar egallash va ushbu xalqaro assotsiatsiya sertifikatiga ega boʻlish, avvalo, yuqori kasbiy kompetensiya mavjudligini tasdiqlaydi va toʻla ishonch bilan yaxshi ish haqi beriladigan joylarga ishga qabul qilish mumkinligini kafolatlaydi. Shu bois Oʻzbekistonda ham ishchi kasblarga oʻqitishning aynan ushbu mexanizmini professional taʼlim tizimida joriy etish maqsad etib belgilangan [6].

Kasbga yoʻnaltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash bilan birga har bir shaxsning individual xususiyatlarini va bozor iqtisodiyoti ehtiyojlarini hisobga olishi kerak. Taʼlim muassasalarida tinglovchilarning egallagan bilimlari, amaliy koʻnikma va malakalari, umumiy mehnat tayyorgarligini, bozor iqtisodiyotining aniq bir sohasida qoʻllash imkoniyatlarini ochib berish lozim. Shu bilan birga, umumtaʼlim fanlari oʻqituvchilari ham oʻrganilayotgan mavzuni dasturlari asosida, yaʼni mantiqiy ketma-ketlikda, fan xususiyatlarini hisobga olgan holda tinglovchilarni mehnat jarayonlari, mehnat turlari va texnologiyalari bilan tanishtirib borishga, ularga Respublikamizning iqtisodiy imkoniyatlari haqida kengroq maʼlumot berishga qaratmogʻi lozim.

U.N.Nishonaliyevning tadqiqotlarida mehnat taʼlimi oʻqituvchilarini tayyorlash jarayoni turli tarixiy davrlarga boʻlib oʻrganilgan hamda kasb taʼlimi oʻqituvchilari shaxsiga innovatsion yondashuv tadqiq etilgan [7].

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerak Oliy taʼlim muassasalari zimmasiga hozirgi kunda mutaxassislarda kasbiy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarni shakllantirish, professional taʼlimga ijodiy yondashgan holda muammolar yechimini mustaqil topish, mustaqil fikrga asoslangan xulosa chiqarish, ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishga qodir

bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan.

Shunday qilib, professional ta'limda malaka oshirishni raqamlashtirishning zamonaviy sharoitida, malaka oshirishga qo'yiladigan zamonaviy normativ talablarni amalga oshirish sharoitida tinglovchilarning mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish imkonini beradigan raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djo'raev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
2. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Science and innovations, 2023/2, 182-189 pp.
3. Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish. "Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O'zDJTU. 188-191 betlar.
4. Murodova A. B. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY LAYOQATLARIN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 259-263.
5. Hamidov J., Muradova A. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY.
6. Muradova A. TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENT OF FUTURE ENGINEERS BY MEANS OF VIRTUAL EDUCATION TECHNOLOGY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 306-311.
7. Abdurasulovich H.J., Qizi M. A. Y. VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – C. 182-189.